

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KO‘P XONALI SONLARNI
BO‘LISHNI O‘RGATISH METODIKASI**

Gulxanova Fotima Akramjon qizi

SamDU talabasi

gulxanovafotima@gmail.com

+998990630836

Samarqand Davlat Universiteti talabasi

Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi

SamDU talabasi.

Qarshiyevamuborak43@gmail.com

+998996839732

Samarqand Davlat Universiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ko‘p xonali sonlarni bo‘lishni tushunarli va sodda holda o‘rgatish malaka va ko‘nikmalari yoritib berilgan.

Abstract: In this article, the competences and skills of teaching division of multi-digit numbers in an understandable and simple way for elementary school students are covered.

Kalit so‘zlar: Bo‘luvchi, bo‘linuvchi, bo‘linma, ko‘p xonali sonlar.

Key words: Divisor, divisor, divisor, multi-digit numbers.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ko‘p xonali sonlarni bo‘lishni o‘rgatishdan avval ularning dars davomida ko‘paytirish jadvalini mustahkam ravishda o‘rganib olganliklari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki deganda qo‘shish amali ko‘paytirish amaliga asos bo‘lib xizmat qilgani kabi ko‘paytirish, ya‘ni Kara jadvalini mustahkam o‘rganish bo‘lish amalini yaxshi o‘rganib, misollarni xatosiz bajarishda o‘quvchilarga yordam beradi va bo‘lish amalini o‘rganishda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bo‘lish amalini o‘rgatishda misolda qatnashgan sonlardan birinchisi bo‘linuvchi, ikkinchisi bo‘luvchi va chiqqan javob, ya‘ni uchinchi son bo‘linma ekanligini aytish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Endi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan quyidagi misollarni yechib yanada mustahkamroq bilimga ega bo‘lamiz.

1-misol: $564:3$

Bo‘linuvchi- 564, bo‘luvchi- 3, bo‘linmani topamiz.

Bo‘linuvchida 3 ta raqam bor. 1-noto‘la bo‘linuvchimiz 5 yuzlik. 5 yuzlikni 3 ga bo‘lib yuzliklarga ega bo‘lamiz. 5 yuzlikni 3 ga bo‘lsak, 1 ta yuzlikdan bo‘ladi. Sinaladigan raqamimiz 1 yuzlik. Endi nechta yuzlikni bo‘lganimizni bilib olamiz. 1 yuzlikni 3 ga ko‘paytiramiz. 3 yuzlik bo‘ladi. Endi nechta yuzlikni bo‘lmaganimizni bilib olamiz. 5 ta yuzlikdan 3 ta yuzlikni ayiramiz 2 yuzlik qoladi. 2 yuzlikni, 3 ga yuzliklar chiqadigan qilib bo‘lib bo‘lmaydi, demak 1 yuzlikni to‘g‘ri tanlabmiz.

2-noto‘la bo‘linuvchini hosil qilamiz. 2 yuzlikni 20 ta o‘nlikka aylantiramiz. 20 ta o‘nlikka 6 o‘nlikni qo‘shamiz, 26 o‘nlik hosil bo‘ladi. 26 o‘nlikni 3 ga bo‘lsak, 8 o‘nlikdan bo‘ladi, Sinaladigan raqamimiz 8 o‘nlik. Endi nechta o‘nlikni bo‘lganimizni

topib olamiz. 8 ta oʻnlikni 3 ga koʻpaytiramiz 24 oʻnlik boʻladi. Endi nechta oʻnlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 26 oʻnlikdan 24 oʻnlikni ayiramiz. 2 oʻnlik qoladi. 2 oʻnlikni 3 ga oʻnliklar chiqadigan qilib boʻlib boʻlmaydi. Demak, 8 oʻnlikni toʻgʻri tanlabmiz.

3-notoʻla boʻlinuvchini hosil qilamiz. 2 ta oʻnlikni 20 ta birlikka aylantiramiz. 20 ta birlikka 4 birlikni qoʻshamiz. 24 birlik hosil boʻladi. 24 birlikni 3 ga boʻlib birliklarga ega boʻlamiz. 24 birlikni 3 ga boʻlsak, 8 birlik chiqadi. Sinaladigan raqamimiz 8 birlik. Endi nechta birlikni boʻlganimizni bilib olamiz. 8 birlikni 3 ga koʻpaytiramiz 24 birlik boʻladi. Endi nechta birlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 24 ta birlikdan 24 birlikni ayiramiz 0 qoladi. Demak, hamma birliklarni boʻlib boʻlibmiz. Boʻlinmamiz: 188

Tekshiramiz: $188 \cdot 3 = (100 + 80 + 8) \cdot 3 = 300 + 240 + 24 = 564$

2-misol: 2278:17

2278- boʻlinuvchi, 17-boʻluvchi, boʻlinmani topamiz.

1-notoʻla boʻlinuvchimiz 22 yuzlik, uni 17 ga boʻlib yuzliklarga ega boʻlamiz. 22 yuzlikni 17 ga boʻlsak, 1 yuzlikdan boʻladi. Sinaladigan raqamimiz 1 yuzlik. Endi nechta yuzlikni boʻlganimizni bilib olamiz. 1 yuzlikni 17 ga koʻpaytiramiz 17 yuzlik boʻladi. Endi nechta yuzlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 22 yuzlikdan 17 yuzlikni ayirsak, 5 yuzlik qoladi. 5 yuzlikni 17ga, yuzliklar chiqadigan qilib boʻlib boʻlmaydi. Demak, 1 yuzlikni toʻgʻri tanlabmiz.

2-notoʻla boʻlinuvchini hosil qilamiz. 5 yuzlikni 50 ta oʻnlikka aylantiramiz va unga 7 ta oʻnlikni qoʻshamiz. 57 oʻnlik hosil boʻladi. 57 oʻnlikni 17 ga boʻlib oʻnliklarga ega boʻlamiz. 57 oʻnlikni 17 ga boʻlsak, 3 oʻnlikdan boʻladi. Sinaladigan raqamimiz 3 oʻnlik. Endi nechta oʻnlikni boʻlganimizni bilib olamiz. 3 oʻnlikni 17 ga koʻpaytiramiz. 51 oʻnlik boʻladi. Endi nechta oʻnlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 57 oʻnlikdan 51 oʻnlikni ayiramiz. 6 oʻnlik qoladi. 6 oʻnlikni 17 ga oʻnliklar chiqadigan qilib boʻlib boʻlmaydi. Demak, 3 oʻnlikni toʻgʻri tanlabmiz.

3-notoʻla boʻlinuvchini hosil qilamiz. 6 oʻnlikni 60 ta birlikka aylantiramiz va 8 birlikni qoʻshamiz, 68 birlik hosil boʻladi, uni 17 ga boʻlib birliklarga ega boʻlamiz. 68 birlikni 17 ga boʻlsak, 4 birlikdan boʻladi. Sinaladigan raqamimiz 4 birlik. Endi nechta birlikni boʻlganimizni bilib olamiz, 4 birlikni 17 ga koʻpaytiramiz 68 birlik boʻladi. Endi nechta birlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 68 birlikdan 68 birlikni ayiramiz 0 qoladi. Demak, hamma birliklarni boʻlib boʻlibmiz.

$134 \cdot 17 = (100 + 30 + 4) \cdot 17 = 1700 + 510 + 68 = 2278$

3-misol: 3451:17

3451-boʻlinuvchi, 17- boʻluvchi, boʻlinmani topamiz.

1-notoʻla boʻlinuvchimiz 34 yuzlik, uni 17 ga boʻlib yuzliklarga ega boʻlamiz. 34 yuzlikni 17 ga boʻlsak 2 yuzlikdan boʻladi. Sinalayotgan raqamimiz 2 yuzlik. Endi nechta yuzlikni boʻlganimizni bilib olamiz. 2 yuzlikni 17 ga koʻpaytiramiz 34 yuzlik boʻladi. Endi nechta yuzlikni boʻlmaganimizni bilib olamiz. 34 yuzlikdan 34 yuzlikni ayiramiz. 0 qoladi. 0 ni yuzliklar chiqadigan qilib boʻlib boʻlmaydi, demak 2 yuzlikni toʻgʻri tanlabmiz.

2-notoʻla boʻlinuvchini tanlaymiz. Oʻnliklar xonasidagi 5 oʻnlikni 17 ga oʻnliklar chiqadigan qilib boʻlib boʻlmaydi. Shuning uchun oʻnliklar xonasiga 0 qoʻyamiz.

Endi 3-notoʻla boʻluvchini topish uchun 5 oʻnlikni 50 ta birlikka aylantiramiz va unga birliklar xonasidagi 1 ni qoʻshsak, 51 birlik hosil boʻladi, uni 17 ga boʻlib

birliklarga ega bo‘lamiz. 51 birlikni 17 ga bo‘lsak, 3 birlikdan bo‘ladi. Sinaladigan raqamimiz 3 birlik. Endi nechta birlikni bo‘lganimizni bilib olamiz. 17 ni 3 birlikka ko‘paytirsak, 51 birlik hosil bo‘ladi. Endi nechta birlikni bo‘lmaganimizni bilib olamiz. 51 birlikdan 51 birlikni ayirsak, 0 qoladi. Demak, 3 birlikni to‘g‘ri tanlabmiz. Bo‘linmamiz 203 ekan.

$$203 \cdot 17 = (200 + 3) \cdot 17 = 3400 + 51 = 3451$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E , Tadjiyeva Z «Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi» Toshkent: Fan va texnologiya, 2005, 312 bet
2. X.Nazarov, G.Eshqobilova . Matematika o‘qitish metodikasi. SamDu .2022y.
3. Matematika umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 3-sinflari uchun darslik.